

“TA’M” KONSEPTIGA ASOSLANGAN METAFORALAR: XITOIY TILIDAGI MAZMUN DOIRALARI VA KOGNITIV MEXANIZMLAR

Fayzullayeva Madina Qahramon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

Toshkent, O‘zbekiston

Tel: +998909057174

fayzulaevamadina@970gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xitoy tilidagi “ta’m” konseptiga asoslangan gastronomik metaforalar lingvokognitiv va lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ta’m leksikasi (shirin, achchiq, nordon, sho‘r, achchiq/achuvchi) orqali shakllanadigan metaforik modellarning mazmun doiralarini aniqlash hamda ularning kognitiv proyeksiya mexanizmlarini yoritishdan iborat.

Kalit so‘zlar: manba domen, maqsad domen, “shirin”, “achchiq”, “nordon”, “sho‘r”.

Xitoy tilida ta’m bilan bog‘liq birliklar nafaqat fizik sezgi holatini, balki emotsional kechinmalar, psixologik holatlar, ijtimoiy munosabatlar, hayotiy tajribalar va axloqiy baholashlarni ifodalovchi keng metaforik tizimni tashkil etadi. Quyida “ta’m → hissiyot”, “ta’m → xulq-atvor”, “ta’m → munosabat” va “ta’m → hayot tajribasi” kabi asosiy konseptual xaritalash modellari ko‘rib chiqiladi.

(1) Tarkibida “酸” *suān* “nordon” bo‘lgan so‘zlar.

Masalan: 半酸子 *bàn suān zi* yarim nordon (challasavod), 酸葡萄 *suān pútao* nordon uzum (sabab izlash, bahona izlash), 发酸 *fā suān* nordon (achchiqlanish, g‘azablanish, achishmoq, og‘riq), 穷酸 *qióng suān* bechora nordon (kambag‘al, qashshoq), 酸溜溜 *suān liūliū* nordon sirpanish (ozgina nordon ta’m, og‘riqli tuyg‘u, yengil rashk tuyg‘usi), 心酸 *xīn suān* nordon hissiyot (yurakdagi qayg‘u, yurak og‘rig‘i).

(2) Tarkibida “苦” *kǔ* “achchiq” bo‘lgan so‘zlar.

Masalan: 苦果 *kǔ guǒ* achchiq meva (o‘tmishda bo‘lgan sabablarning yomon oqibati), 喝苦酒 *hē kǔjiǔ* achchiq sharob ichmoq (azoblanmoq), 苦肉计 *kǔ ròu jì* achchiq go‘sht rejasi (o‘z-o‘ziga og‘riq keltirish strategiyasi, urush paytida dushman ishonchini qozonish uchun ishlatilgan), 吃苦头 *chī kǔtóu* qiyinchilik yemoq (qiyinchilikka chidamoq), 酿苦酒 *niàng kǔjiǔ* achchiq sharob tayyorlamoq (hayotning achchiq va og‘riqli tuyg‘ulari).



(3) Tarkibida “甜” *tián* “shirin” bo‘lgan so‘zlar.

Masalan: 甜头 *tiántou* shirin ta‘m (muvaqqafiyat, foyda), 甜枣儿 *tián zǎor* shirin xurmo (yoqimli sifat, ijobiy hissiyot), 嘴甜 *zuǐ tián* shirin og‘iz (shirin so‘z).

(4) Tarkibida “味” *wèi* “ta‘m” bo‘lgan so‘zlar.

Masalan: 不是味儿 *bù shì wèi(r)* bu ta‘m emas (juda ham to‘g‘ri emas, o‘rinli emas), 提味儿 *tí wèi(r)* ta‘m olmoq (mazali, yoqimli qilmoq), 对味 *duì wèi* to‘g‘ri ta‘m (didga mos, ma‘qul keladigan).

(5) Tarkibida “辣” *là* “achchiq” (qizituvchi, qalampirga oid ta‘m) bo‘lgan so‘zlar.

Masalan: 辣妹子 *là mèizi* o‘tkir qiz (temperamentli, latofatli, faol qiz), 辣味 *là wèi* o‘tkir ta‘m (keskin, achchiq ta‘m), 辣子 *làzi* achchiq, chili (o‘tkir fe‘lli, temperamentli ayol), 泼辣货 *pōla huò* qo‘pol buyum (qo‘pol, shiddatli ayol), 小辣椒 *xiǎo làjiāo* mayda achchiq qalampir (keskin, shavqatsiz yoki juda faol qiz/ayol).

“郭鹏心中暗 暗吓了一跳:想不到小管这么厉害, 怪不得车间里的人叫她 ‘小辣椒’ 哩.” (<http://c.obskey.com>)

“Guo Peng ichida beixtiyor cho‘chib ketdi: Xiaoguan bunday kuchli va o‘tkir xarakterga ega bo‘lishini kutmagan edi, shuning uchun ham ustaxonadagilar uni ‘kichkina qalampir’ deb atashlari bejiz emas ekan.”

Xitoy tilida “小辣椒” *xiǎo làjiāo* kichkina qalampir metaforasi o‘tkir fe‘lli, keskin xarakterga ega, shiddatli, qat‘iy ayolni ifodalaydi. “辣” *là* — achchiq ta‘m obraziga asoslanib, inson xarakterining “keskinlik, shijoat va qattiqqo‘llik” kabi sifatlarini metaforik tarzda ifodalaydi. Shuning uchun ham bu ibora ayol shaxsining faol, qat‘iyatli va ta’sirchan xarakterini tasvirlashda ishlatiladi.

(6) Tarkibida “咸” *xián* “sho‘r” bo‘lgan so‘zlar.

Masalan: 不咸不淡 *bù xián bù dàn* na sho‘r, na ta‘msiz (zerikarli, qiziq bo‘lmagan, oddiy, xususiyatsiz).

(7) Boshqalar toifalar.

Masalan: 香饽饽 *xiāng bōbo* xushbo‘y pishiriqlar (juda mashhur shaxs, katta talabga ega narsa, barcha e’tibor qaratiladigan ijobiy obyekt).

Gastronomik metaforalar tildagi obrazlilikni oshirish bilan birga, ma’no yaratish jarayonida kognitiv va madaniy tajribalarning o‘zaro bog‘liqligini ham ko‘rsatadi. Xitoy xalqining konseptual dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tajribalarini ifodalovchi muhim lingvokulturologik ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa, ta’nga asoslangan metaforalar xitoy tilining semantik tizimida **markaziy konseptual o‘q** bo‘lib, ular sezgi tajribalarini abstrakt mazmunlarga bog‘lash orqali **til–tafakkur–madaniyat** uzviy birligini namoyon etadi. Bu esa xitoy



tilidagi gastronomik metaforalar tadqiqida ta'm kategoriyasining alohida ilmiy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff G. Metaphors We Live By / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.
2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction / Zoltán Kövecses. – N.Y. : Oxford University Press, 2002. – 285 p.
3. 金爱情. 汉韩饮食惯用语的隐喻和转喻对比研究. - 浙江大学, 2018 年. - 54 页